

TILNING JAMIYAT BILAN BOG'LIQLIGI

Saparova Asila

*Termiz davlat universiteti
Milliy libos va san'at fakulteti
Kutubxona axborot faoliyati
2-kurs talabasi*

Annotatsiya : *Bu maqolada yozuvning bir necha ming yillik uzoq tarixi va murakkab rivojlanishi haqida keltiriladi . Yozuv insoniyat tomonidan yaratilganidan keyin xalq hayotida yuz bergan o'zgarishlar , rivojlanishlar madaniyatning ham rivojlanishiga olib keldi .Kishilik jamiyatida yozuvning ahamiyati yuqoridir .*

Kalit so'z : *Yozuv , jamiyat , til , madaniyat , aloqa , "sehrli qudrat" , rivojlanish , og'zaki talaffuz , tasviriy yozuv , zamonaviy yozuv .*

Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. U kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400–500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4–5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutq)ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ogzaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to'lqinlari yetib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozuv dunyoga kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik harakterdagi axborotlarni qayd etish, saqdash zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi; ichki va savdo kengayadi; boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va b. shartnomalar tuziladi; qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi; xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bularning barchasini faqat og'zaki nutq vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda yozuv zaruriyatga aylanadi. Yozuv og'zaki nutqqa nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsada, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga

oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lg'a kiritgan tajriba bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita Yozuv . orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va b. qimmatli axborotlarning barchabarchasi avlodlardan avlodlarga Yozuv. orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, yozuv ham shunchalik bog'liqdir. Dastlabki qarashlarda yozuvning kelib chiqishini ilohiyotga bog'lash uchraydi. Bu aslida yozuvning tengsiz imkoniyatlarini tasavvurga sig'dira olmaslik, yozuv magiyasi ("Yozuv sehrli qudratga ega" degan ishonch) oqibatida kelib chiqqan jo'n tasavvurlar mahsulidir. Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'lib, rivojlanib borgan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzoq, va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Inson aqli yozuvday mukammal aloqa vositasini kashf qilguncha uzoq izlangan. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan "eslatuvchi" belgilar ana shu izlanishlarning ilk ko'rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig'anoklardan foydalanilgan, tayoklar, daraxtlarga har xil iplar bog'lash, tugunlar tugib qo'yish va b. vositalar bilan muayyan axborotni esda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Yoki bir xabarni uzoq, masofaga yetkazish uchun tutun, gulxan, baraban ovozi va sh.k. qo'llangan. Xabarni uzoq, vaqt saqlash uchun ramziy ma'no berilgan buyumlardan foydalanilgan: qo'rg'on - marhum ko'milgan joy belgisi; slavyan qabilalarida nontuz - do'stlik belgisi; trubka - tinchlik, sulh belgisi va b. "Buyumli yozuv" nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositalarining qoldiqlari hozirda ham ba'zan saqlangan. Masalan, biror fikrni esdan chiqarib qo'ymaslik uchun ro'molchanning uchini tugib qo'yish odatini yodga olish mumkin. Rasmi yozuv (piktografiya) Yozuv yaratish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan. Rasm bilan yozuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, avvalo, har ikkalasi ham ko'rish orqali idrok qilinadi. Yozish insoniyatning eng buyuk ixtirolaridan biridir. Yozish odamlarga og'zaki tilda muloqot qilish imkonsiz yoki qiyin bo'lgan hollarda muloqot qilishga yordam beradi. Og'zaki tilda muloqot qilishning asosiy to'siqlari makon va vaqtdir. Odamlar taxminan 500 ming yil davomida og'zaki nutqdan foydalanganlar. Xat ancha keyin keldi. Tasviriy yozuvning asl shakllari 5000 yil oldin paydo bo'lgan, xat yozish esa 3000 yildan kamroq vaqtni tashkil etadi. Sivilizatsiya yozuvning paydo bo'lishi bilan paydo bo'ladi. Yozmasdan, fan, texnika, madaniyat yutuqlari zamonaviy dunyo asl nusxadan farq qiladi. Yozuv paydo bo'lgunga qadar insoniyat bilimi avloddan-avlodga og'izdan og'izga o'tib kelgan. Shuning uchun bu bilimlarni to'ldirish juda sekin kechdi. Ko'pgina inson guruhlari tabiiy, geografik to'siqlar - tog'lar, dengizlar, okeanlar - yoki dini, urf-odatlar, tili, turli davlatga

mansubligi bilan ajralib turardi. Shuning uchun insoniyatning bir hududda qilgan kashfiyotlari uzoq vaqtdan so'ng boshqa hududda ma'lum bo'ldi va ba'zi joylarda ularga umuman etib bormadi. Yozuv bir necha ming yillik uzoq va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Bugun biz qo'llayotgan yozuv azaldan o'zining asl shaklini yo'qotib, komillik yo'lida turli taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Yozuvning paydo bo'lishi va rivojlanishi xalq tarixi, til madaniyatining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning yozuv tizimi ham shunchalik mukammal bo'ladi .

Xulosa qilib aytganda yozuv kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladi . Kishilik jamiyatining tom ma'nodagi ibtidosi , bashariyatning uzoq va murakkab rivojlanishi jarayonidagi omillarning eng asosiyalaridir . Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa , yozuv ham shunchalik bog'liqdir . Bugun o'zimiz ham foydalanayotgan yozuv asl shakllanishi , yaratilish tarixi bosqichlari ko'p davrlarni bosib o'tgan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fridrix I., Istoriya pisma, M., 1979; Gelb I. Ye., Opit izucheniya pisma. Osnovi grammatologii, M., 1982; Istrin V. A., Voznikoveniye i razvitiye pisma, M., 1965; Maxmudov N., Yozuv tarixidan qisqacha lug'atma'lumotnoma, T., 1990. Nizomiddin Mahmudov
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2008
3. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori: «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida», «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi» (Vazirlar Mahkamasining 1995-yil, 24-avgustdagi 339-sonli qarori.).
4. . Lafasov U. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent: ToshDSHI, 2016. – 532 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5850-sonli 21.10.2019 yil qabul qilingan O'zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risidagi Farmoni